

YASHIL IQTISODIYOTNING MAMLAKATIMIZ IQTISODIY RIVOJLANISHIDAGI TUTGAN O'RNI

Erkinov Davronbek Yusupovich

Toshkent kimyo-texnologiyasi instituti, Menejment va kasb ta'limi fakulteti, Sanoat iqtisodiyoti va menejmenti kafedrasи, 57-20 guruh talabasi
erkinovdavron02@gmail.com

Kadirov Ulug'bek Ravshanovich

Toshkent kimyo-texnologiyasi instituti, Menejment va kasb ta'limi fakulteti, Sanoat iqtisodiyoti va menejmenti kafedrasи
ulugbekkadirov1@gmail.com

ANNOTATSIYA

Yashil iqtisodiyot har qanday davlatning barqaror rivojlanishini ta'minlashning muhim vositalaridan biridir. Yashil iqtisodiyot deganda aholining hayot sifati yuqori bo'lgan, tabiiy resurslardan hozirgi va kelajak avlodlar manfaatlari yo'lida hamda mamlakatning xalqaro ekologik majburiyatlariga muvofiq ravishda oqilona foydalilaniladigan iqtisodiyot tushuniladi. Rivojlanayotgan bozorlarda iqtisodiy o'sishning ishonchli harakatlantiruvchi kuchi bo'lgan, iqtisodiy inqirozdan chiqishning yangi imkoniyatlarini taqdim etuvchi yashil iqtisodiyotni joriy etish masalasi xalqaro hamjamiyatning eng dolzarb muammolaridan biridir.

Kalit so'zlar: yashil iqtisodiyot, iqtisodiy rivojlanish, iqtisodiy o'sish modellari, resurslar, iqtisodiy taraqqiyot, yalpi ichki mahsulotning o'sishi.

KIRISH

Globallashuv jarayoni sanoati rivojlangan mamlakatlarning texnologik

bazasining sifat jihatidan yangilanishini, ishlab chiqarish samaradorligi va raqobatbardoshlik darajasini oshirish bilan birga hayot sifatini va yashash muhitini yaxshilashni ta'minlaydigan yangi texnologik tuzilmaga modernizatsiya qilingan iqtisodiyotga o'tishni talab qilmoqda. Xorijda bu o'tishni amalga oshiruvchi "yashil o'sish" iqtisodiy siyosati Iqtisodiy Hamkorlik va Taraqqiyot Tashkiloti tomonidan barcha a'zolarining uzoq muddatli (2030-yilgacha) rivojlanishi uchun strategik yo'naliш sifatida qabul qilingan.

Jamiyat taraqqiyoti, aholi sonining tez sur'atlar bilan o'sishi, ishlab chiqarish va chiqindilarning ko'payishi, ekologik muammolar kengayib, to'planib bormoqda. Eng dolzarb muammolar: jamiyat hayoti uchun qulay shart-sharoitlarni saqlab qolish, tabiiy resurslarning kamayishi va ekologik xavfsizlik.

Zamonamizning global muammolari va birinchi navbatda, global ekologik inqiroz insoniyatni faoliyatning barcha sohalarini ko'kalamzorlashtirishga undab, jahon iqtisodiyoti o'sishining muqobil modellarini zudlik bilan izlash zaruriyatini keltirib chiqarmoqda. Shu munosabat bilan dunyoning ko'plab davlatlari iqtisodiyotni yashillashtirish, odamlarning turmush tarzini qayta ko'rib chiqish zarurligini anglab yetdi va mavjud rivojlanish modellarini cheklangan resurslarni yanada samaraliroq boshqarish, ya'ni barqaror rivojlanish foydasiga o'zgartirishga kirishdi.

Hozirgi bosqichda iqtisodiy hayotning ekologik jihatni tobora dolzarb bo'lib, davlatlararo hamkorlikning ustuvor yo'naliшiga aylanib bormoqda. Shu munosabat bilan ekologik va iqtisodiy hamkorlik sohasida xalqaro davlat va nodavlat tashkilotlari tuzilmoqda, global ekologik muammolarni birgalikda hal etish, iqtisodiyotni ommaviy ekologiyalashtirishga qaratilgan qonunchilik takomillashtirilmoqda.

Yashil iqtisodiyot tushunchasining keng tarqalgan, nisbatan to'liq ta'rifi BMTning Atrof-muhitni muhofaza qilish dasturi (UNEP) tomonidan ishlab chiqilgan bo'lib, Yashil iqtisodiyot - bu odamlar farovonligi va ijtimoiy tengligining yaxshilanishi, ekologik risklar va ekologik taqchillikni sezilarli darajada

kamaytirishga olib keluvchi iqtisodiyotdir. Yashil iqtisodiyot konsepsiyasining asosiy maqsadi barqaror iqtisodiy o'sishni ta'minlash va investitsiyalarni oshirish bilan bir vaqtda atrof muhit muhofazasi va ijtimoiy integratsiya sifatini yaxshilash hisoblanadi. Yashil iqtisodiyotning maqsadi tabiiy resurslardan oqilona foydalangan va salbiy ekologik ta'sirlarni nisbatan kamaytirgan holda barqaror iqtisodiy o'sishga erishishdir.

ADABIYOTLAR TAHLILI VA METODOLOGIYA

Barqaror rivojlanish nafaqat qayta tiklanadigan energiya manbalariga o'tish va "yashil" energiya tushunchasi bilan birlashtirilgan energiya samaradorligini o'z ichiga oladi, balki ancha kengroq - iqlimga antropogen ta'sirni sekinlashtiradigan "yashil" iqtisodiyotga o'tish sifatida qaraladi. "Yashil" iqtisodiyotni huquqiy qo'llab-quvvatlashda xalqaro huquq hujjatlari, ilg'or jahon tajribasi va iqlimga oid nizolarni hal etishda alohida o'rinni tutadi. Yashil iqtisodiyotga o'tishda hozirgi global tendensiyalarni aniqlash, shuningdek, ularning mamlakatimizdagi ta'sirini ko'rsatishga imkon beradi.

Yashil iqtisodiyot - bu XX asr oxirida paydo bo'lgan iqtisodiyotda inson iqtisodiy faoliyatining atrof-muhitga salbiy ta'sirini kamaytirish zarurligini ta'kidlaydigan va har qanday holatda ham iqtisodiy o'sishga emas, balki barqaror rivojlanishga e'tibor qaratadigan tendentsiyadir. Yashil iqtisodiyot konsepsiysi salomatlik va ijtimoiy tenglikni yaxshilashga, shuningdek, atrof-muhitga xavfli ta'sirlar va ekologik tanqislikni sezilarli darajada kamaytirishga olib keladigan modeldir. Yashil iqtisodiyot - bu odamlar va tabiat o'rtasidagi o'zaro bog'liqlikni va ikkalasining ehtiyojlarini bir vaqtning o'zida qondirishga urinishlarni qo'llab-quvvatlaydigan iqtisodiyot metodologiyasi. Yashil iqtisodiy nazariyalar odamlar va atrof-muhit o'rtasidagi o'zaro bog'liqlik bilan bog'liq bo'lgan ko'plab g'oyalarni qamrab oladi.

O'zbekistonda 2030-yilgacha bo'lgan davrda yashil iqtisodiyotni

rivojlantirishning ustuvor yo‘nalishlari elektr transporti va shahar mobilligi, energiya, shu jumladan qayta tiklanadigan energiya manbalari, barqaror iste’mol va ishlab chiqarish, barqaror turizm, innovatsion yashil va raqamli texnologiyalar bo‘ladi. O‘zbekiston Respublikasining barqaror rivojlanish maqsadlariga erishishdagi borishida 2030-yilgacha mamlakatning barqaror rivojlanish milliy strategiyasi, 2019-2030-yillarda ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanish dasturini tayyorlashni amalga oshirish bo‘yicha chora-tadbirlar ko‘rib chiqilmoqda. Bunda mamlakat iqtisodiyotining rivojlanishi iqlim o‘zgarishi sharoitida yashil iqtisodiyot va barqaror rivojlanish konsepsiyasini ilgari surish bo‘yicha yondashuvlar alohida masala sifatida ko‘rib chiqilmoqda.

2019-2030-yillarga mo‘ljallangan O‘zbekiston Respublikasining “Yashil iqtisodiyotga o‘tish strategiyasi” iqtisodiyotni rivojlantirish chora-tadbirlar rejasi va kelgusi yillarga mo‘ljallangan ustuvor yo‘nalishlariga qaratilgan. Yashil iqtisodiyotga o‘tish strategiyasi mexanizmi global va milliy darajada barqaror rivojlanishga o‘tishning samarali vositasi bo‘lib, ekologik samaradorlik, resurslarni tejash, tarmoqlararolik tamoyillariga asoslanadi.

Mamlakatda tarkibiy o‘zgartirishlarni chuqurlashtirish, iqtisodiyotning bazaviy tarmoqlarini modernizatsiyalash va diversifikatsiyalash hamda hududlarni bir maromda ijtimoiy-iqtisodiy rivojlantirishga qaratilgan kompleks chora-tadbirlar amalga oshirilmoqda. 2019-yilning 8-9-iyul kunlari Toshkent shahrida “yashil” iqtisodiyot bo‘yicha normativ-huquqiy bazani va siyosatni takomillashtirish, davlat va xususiy sektor o‘rtasidagi sheriklik munosabatlari orqali innovatsion “yashil” investitsiyalarni qo‘llab-quvvatlashga qaratilgan Yevropa va MDH davlatlarining “yashil” iqtisodiyot bo‘yicha mintaqaviy vazirliklar konferensiyasi o‘tkazildi. Shu bilan birga, o‘tkazilgan tahlil iqlimning o‘zgarishi sharoitida samarali, resurs tejamkor va ekologik xavfsiz iqtisodiyotni ta’minlashda o‘zaro bog‘liq muammolar va ehtiyojlar mavjudligini ko‘rsatdi.

Mamlakatimizda ham hozirda ko‘plab mamlakatlar singari, u ham ekologik va

iqtisodiy tashkilotlarga a'zo bo'lib, ular faoliyatida faol ishtirok etmoqda. Mamlakatimizda atrof-muhitni muhofaza qilish masalalariga tobora ko'proq e'tibor qaratilmoqda, turli davlat dasturlari amalga oshirilmoqda, atrof-muhitni muhofaza qilish sohasidagi qonunchilik takomillashtirilmoqda, atrof-muhitni muhofaza qilish choralari ko'rilmoxda. Bundan tashqari, so'nggi paytlarda "yashil" iqtisodiyot ko'rsatkichlarini hisobga olish va tahlil qilishga tobora ko'proq e'tibor qaratilmoqda.

MUHOKAMA VA NATIJALAR

Jadallashayotgan sanoatlashtirish va aholi sonining ortishi iqtisodiyotning resurslarga bo'lgan ehtiyojini sezilarli darajada oshirmoqda, shuningdek, atrof muhitga salbiy antropogen ta'sirni kuchaytirmoqda va issiqxona gazlari ajratmalarining ortishiga olib kelmoqda. Iqtisodiyot energiya samaradorligining past darjasи, tabiiy resurslardan nooqilona foydalanish, texnologiyalar yangilanishining sustligi, "yashil iqtisodiyot"ni rivojlantirish uchun innovatsion yechimlarni joriy etishda kichik biznes ishtirokining yetarli emasligi mamlakatni barqaror rivojlantirish sohasidagi ustuvor milliy maqsadlar va vazifalarga erishishga to'sqinlik qilmoqda.

O'zbekiston Respublikasining "yashil" iqtisodiyotga o'tishining asosiy vazifalari etib quyidagilar belgilandi :

- texnologik modernizatsiyalash va moliyaviy mexanizmlarni rivojlantirish orqali iqtisodiyotning energiya samaradorligini oshirish va tabiiy resurslardan oqilona foydalanish;
- davlat investitsiyalari va xarajatlarining ustuvor yo'nalishlariga ilg'or xalqaro standartlarga asoslangan "yashil" mezonlarni kiritish;
- davlat tomonidan rag'batlantirish mexanizmlarini, davlat-xususiy sherikchilikni rivojlantirish hamda xalqaro moliyaviy institutlar bilan hamkorlikni faollashtirish orqali "yashil" iqtisodiyotga o'tish yo'nalishlari bo'yicha tajriba-sinov loyihibalarini amalga oshirishga ko'maklashish;
- ta'limga investitsiyalar kiritishni rag'batlantirish, yetakchi xorijiy ta'lim

muassasalari va ilmiy-tadqiqot markazlari bilan hamkorlikni rivojlantirish hisobiga “yashil” iqtisodiyotdagi mehnat bozori bilan bog‘liq kadrlarni tayyorlash va qayta tayyorlash tizimini rivojlantirish;

- Orolbo‘yidagi ekologik inqirozning salbiy ta’sirini yumshatish choralarini ko‘rish;

-“yashil” iqtisodiyot sohasida, shu jumladan ikki tomonlama va ko‘p tomonlama shartnomalar tuzish orqali xalqaro hamkorlikni mustahkamlash.

2019-2030-yillar davrida O‘zbekiston Respublikasining “yashil” iqtisodiyotga o‘tish strategiyasi ko‘ra quyidagilar uni amalga oshirishning ustuvor yo‘nalishlari etib belgilandi :

- iqtisodiyotning bazaviy tarmoqlari energiya samaradorligini oshirish;
- energiya resurslari iste’molini diversifikatsiyalash va qayta tiklanuvchi energiya manbalaridan foydalanishni rivojlantirish;
- iqlim o‘zgarishi oqibatlariga moslashish va ularni yumshatish, tabiiy resurslardan foydalanish samaradorligini oshirish va tabiiy ekotizimlarni asrash;
- “yashil” iqtisodiyotni qo’llab-quvvatlashning moliyaviy va nomoliyaviy mexanizmlarini ishlab chiqish.

2019-2030-yillar davrida O‘zbekiston Respublikasining “yashil” iqtisodiyotga o‘tish strategiyasining asosiy maqsadi mamlakatda amalga oshirilayotgan tuzilmaviy islohotlarga “yashil” iqtisodiyot tamoyillarini integratsiya qilish orqali ijtimoiy rivojlanishga, issiqxona gazlarining ajratmalari darajasini pasaytirishga, iqlim va ekologiya barqarorligiga imkon beruvchi mustahkam iqtisodiy taraqqiyotga erishishdan iborat.

Strategiyani amalga oshirish natijasida 2030-yilga borib quyidagilarga erishish kutiladi :

- issiqxona gazlarining yalpi ichki mahsulot birligiga nisbatan solishtirma ajratmalarini 2010-yildagi darajadan 35 foizga qisqartirish;
- qayta tiklanuvchi energiya manbalarining ishlab chiqarish quvvatini 15 GVtga

oshirish va ularning ulushini elektr energiyasini ishlab chiqarish umumiylajmiy hajmining 30 foizidan ko‘prog‘iga yetkazish;

- sanoat sohasida energiya samaradorligini kamida 20 foizga oshirish;
- yalpi ichki mahsulot birligiga to‘g‘ri keladigan energiya sarfi hajmini, shu jumladan qayta tiklanuvchi energiya manbalaridan foydalanishni kengaytirish hisobiga 30 foizga kamaytirish;
- iqtisodiyotning barcha tarmoqlarida suvdan foydalanish samaradorligini sezilarli darajada oshirish, 1 million gektargacha maydonda suv tejovchi sug‘orish texnologiyasini joriy etish;
- yiliga 200 million ko‘chat ekish va ko‘chatlarning umumiylajmiy sonini 1 milliarddan oshirish orqali shaharlardagi yashil maydonlarni 30 foizdan ortiqroqqa kengaytirish;
- respublika o‘rmon fondi zaxiralari ko‘rsatkichini 90 million kub metrdan ortiqroqqa yetkazish;

hosil bo‘ladigan qattiq maishiy chiqindilarni qayta ishslash darajasini 65 foizdan oshirish.

XULOSA

Xulosa qilib shuni aytishimiz mumkinki, yashil iqtisodiyot mamlakatning iqtisodiy o‘sish va rivojlanishini rag‘batlantirishda, shu bilan birga tabiiy boyliklar saqlanib qolishi va farovonligimizga bog‘liq bo‘lgan resurslar va ekotizim xizmatlarini taqdim etishda davom etishini ta’minlaydi. Yashil iqtisodiyot mintaqaviy rivojlanishni, ijtimoiy barqarorlikka erishishni, iqtisodiyot tarmoqlarida yangi ish o‘rinlari yaratilishi orqali iqtisodiy salohiyatni oshirishni rag‘batlantiradi. Yashil iqtisodiyot, asosan, iqtisodiy taraqqiyotga yordam beradi va yalpi ichki mahsulotning o‘sishini, mamlakat daromadlarini oshirishni, aholini ish bilan ta’minlash, mamlakatda ishsizlik darajasini pasaytirishni ta’minlaydi. Shu bilan birga, yashil iqtisodiyotga o‘tish iqlim o‘zgarishi, foydali qazilma minerallarning yo‘qolishi va suv resurslarining tanqisligi kabi global tahdidlar xavfini kamaytiradi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO‘YXATI

1. *Vaxobov A. V., Xajibakiyev Sh. X. : “Yashil iqtisodiyot” darslik*
2. *O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2019-yil 4-oktyabrdagi “Yashil iqtisodiyotga o‘tish strategiyasini tasdiqlash to‘g‘risida”gi qarori*
<https://lex.uz/docs/-4539502#-4542614>
3. *O‘zbekiston Respublikasi iqtisodiyot va moliya vazirligi axborotlari*
<https://cityeconomy.uz/uz>
4. *www.unep.org - Birlashgan Millatlar Atrof-muhit dasturining rasmiy sayti*
5. *O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2022-yil 2-dekabrdagi “2030-yilgacha O‘zbekiston Respublikasining Yashil iqtisodiyotga o‘tishga qaratilgan islohotlar samaradorligini oshirish bo‘yicha chora-tadbirlar to‘g‘risida” gi qarori*
<https://lex.uz/ru/docs/-6303230>